

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xayrullayeva Maxfuza Ibroximjon qizi

Toshkent viloyati Chinoz tumani, 26-maktab, ingliz tili o'qituvchisi

maxfuzaxayrullayeva9092@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Ushbu metodlar orqali talabalar til ko'nikmalarini rivojlantirib, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. Tezisdagi samarali interfaol usullar tahlil qilinib, ularning kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarga ta'siri ko'rsatib berilgan. Shuningdek, metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, ingliz tili ta'limi, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik kompetensiya, kommunikativ yondashuv, samaradorlik.

Аннотация: В данной диссертации освещается важность использования интерактивных методов в подготовке будущих преподавателей английского языка. С помощью этих методов студенты развивают языковые навыки, а также обучаются независимому и творческому мышлению. В исследовании анализируются эффективные интерактивные методы и показано их влияние на коммуникативные и профессиональные компетенции. Также разработаны методические рекомендации.

Ключевые слова: интерактивные методы, обучение английскому языку, будущий преподаватель, педагогическая компетенция, коммуникативный подход, эффективность.

Abstract: This thesis explores the significance of using interactive methods in the preparation of future English language teachers. Through these methods, students develop language skills while being trained to think independently and creatively. The study analyzes the effectiveness of interactive techniques and demonstrates their impact on communicative and professional competencies. Furthermore, methodical recommendations are provided.

Keywords: interactive methods, English language education, future teacher, pedagogical competence, communicative approach, effectiveness.

KIRISH

XXI asrda ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikka erishish, ayniqsa chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati global talabga aylangan. Ingliz tili



nafaqat kommunikativ ehtiyojni, balki turli sohalarda integratsiyani ta'minlaydi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyati yuzaga chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet tillarini o'qitish bo'yicha qaror va farmonlarida ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilar metodik salohiyatini kuchaytirish alohida ta'kidlangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda interfaol metodlar samarali vosita sifatida ko'rsatiladi, chunki ular o'quvchini faol muloqot qiluvchi va ijodkor shaxs sifatida rivojlantiradi.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida interfaol usullardan foydalanishning nazariy asoslarini yoritish, ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlash va amaliy qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: Ingliz tili ta'limida interfaol metodlarning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda interfaol usullarning o'rnini aniqlash; ingliz tili darslarida qo'llaniladigan samarali interfaol metodlarni (rol o'ynash, debat, munozara, klaster, jigsaw va boshqalar) o'rganish va tasniflash; interfaol usullarning talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ochib berish; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda interfaol metodlardan foydalanish jarayonining nazariy asoslari zamonaviy ta'lim paradigmasi – shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kommunikativ metodika va konstruktivistik ta'lim konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Interfaol metodlar talabalarning o'quv jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tili ta'limida qo'llaniladigan interfaol metodlar nafaqat lingvistik bilimlarni mustahkamlash, balki talabalarda muloqot madaniyati, kasbiy kompetensiya va pedagogik tafakkurni shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Jumladan:

- Rol o'ynash (Role play) – real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarni muloqotga jalb etadi va ularda nutqiy faollikni rivojlantiradi;
- Debat va munozara – talabalarni erkin fikr bildirishga, dalillash va asoslash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi;
- Klaster, aqliy hujum – ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, mavzu bo'yicha keng qamrovli tahlil qilish imkonini beradi;
- Jigsaw, Insert – matn bilan ishlash jarayonida hamkorlik, guruhli o'rganish va o'zaro yordamni kuchaytiradi;



- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan metodlar – onlayn platformalar, interaktiv doska va multimedia vositalari orqali o'quv motivatsiyasini oshiradi.

- Interfaol metodlardan muntazam foydalanish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida quyidagi natijalarni beradi:

- Til kompetensiyasining barcha turlari – tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarining uyg'un rivojlanishi;

- Kasbiy-pedagogik mahoratning takomillashuvi, darsni interaktiv tashkil etish qobiliyatining oshishi;

- Mustaqil va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarining shakllanishi;

- Ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatining mustahkamlanishi.

Demak, interfaol metodlardan foydalanish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ularning kasbiy tayyorgarligini xalqaro standartlar darajasida ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa: Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish va talabalarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodlar talabalarga bilimlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Interfaol metodlardan tizimli foydalanish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi;

ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi;

kasbiy-pedagogik mahoratning yuksalishi;

o'qituvchi va talabalar o'rtasida hamkorlikning mustahkamlanishi.

Interfaol metodlar ingliz tili ta'limining sifatini oshiradi va bo'lajak o'qituvchilarning professional salohiyatini yuksaltiradi, bu esa ta'lim jarayonini xalqaro talablar darajasiga moslashtirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. New York: Pearson Education, 2007. - 87 b.

2. Mukhammadjonova.G. Ingliz tili ta'limida interfaol metodlarning o'rni. O'zbekiston pedagogika jurnali, 2021. №3, 45–50.



- 
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori. 2021-yil 19-may.
 4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. - 63 b.
 5. Xodjayeva, N. Chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. № -56 b.

